



MUSIQA MAKTABLARIDA MUSIQA SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI

Rasulova Homidabonu No'monxon qizi

*Farg'ona davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-kurs
magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada musiqa savodxonligi fanining musiqa maktablari darslaridagi ahamiyati, o'quvchi yoshlarning musiqiy bilim-saviyasiga bo'lgan ta'siri, jumladan musiqaning ifoda vositalari, oddiy musiqa shakllari, janrlari, musiqa asarlarining tonalliklari va boshqa asosiy elementlarini o'rganish haqidagi dolzarbliklari haqida so'z yuritiladi*

Kalit so'zlar: *musiqa, musiqa nazariyasi, musiqa tili, musiqa asarlar, solfedjio, musiqa ifoda vositalari, musiqiy shakl.*

Abstract *The article asks about the importance of the science of music literacy in the lessons of music schools, its impact on the musical knowledge of young students, including the relevance of learning the means of expression of music, simple musical forms, genres, tonality and other basic elements of musical works.*

Keywords: *music, music theory, musical language, musical works, solfeggio, means of musical expression, musical form.*

KIRISH

Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, barcha o'quv fanlari qatori, musiqa madaniyati fani uchun ham zamon talabi asosida yangi dastur yaratildi. Dasturasosida yangi o'quvqo'llanmalar, darsliklar yaratildi. Chunki musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafasatga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. «Musiqa madaniyati» fani dasturida, o'quvchiga musiqa ta'limini berish bilan bir qatorda, uning ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqiy savodxonligi, ritmik jo'r bo'lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtilgan.

Musiqa insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Musiqaning o'zi faqat jonli ijroda, haqiqiy ovozda jonlanadi. Buning uchun esa musiqa asbobini mohirona boshqaradigan va, albatta, musiqa qanday ishlashini: u qanday qonunlarga bo'ysunishini va qanday qoidalar asosida yashashini yaxshi tushunadigan ijrochi kerak. Musiqa nazariyasini qanchalik yaxshi tushunilsa, musiqa haqidagi tushuncha va idrok shunchalik chuqurroq bo'ladi.

Musiqa nazariyasi musiqa kompozitsiyasi asosidagi qoida va tamoyillarni shakllantiradigan fan. Musiqa nazariyasi musiqa asarini tahlil qilish, musiqaning «qurilish bloklari» va ular bilan ishlash tamoyillari bilan shug'ullanadi. Musiqa nazariyasi o'rganish predmeti sifatida ham tushuniladi, uning maqsadi musiqani ijro etish va tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashdir. Musiqa nazariyasining asosiy kategoriyalari:



ohang, garmoniya, kontrpunkt (polifoniya), shakldir Musiqa nazariyasi musiqa asarlarini yaratish asoslari va tamoyillarini, musiqiy – qo'shiq va cholg'u – tovush birikmalarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa nazariyasi doirasida nota yozuvlari o'rganiladi, bu aslida har qanday til uchun alifboning analogidir. «Musiqa tili» iborasi barqaror va tez-tez qo'llanilganligi sababli, bu o'xshashlik butunlay mantiqiy ko'rinadi.

Musiqa nazariyasi (solfedjio, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili)” kursining maqsadi – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va ularni idrok etish qobiliyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilar:

oTalabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarni o'rgatish;

oAmaliy ishlardagi nota matnini o'qish jarayonini mukammallashtirish va ovoz intonatsiyasining sofligiga erishish;

oMusiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil mu siqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish;

oKompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o'rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish;

oTalabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, sur'at va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori quriladi. Unda

musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblarda ritmik jo'r bo'lish) beriladi. Musiqa savodi mustaqil dars faoliyati sifatida amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, musiqiy savodxonlik darsning ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqa savodi faoliyat turi musiqa maktablari mashg'ulotlarining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, xar bir yo'nalishda ta'lim olayotgan o'quvchilar kirishi majbur bo'lgan fan hissiblanadi, ya'ni hoh fortepiano, hoh raqs bo'lsin. Shu sababdan musiqa savodi musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi. Musiqa savodxonligi darslari o'quvchilarga 1-sinfdan boshlab ta'lim berilib yildan yilga . Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Eng muhimi notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, vokal-xor ovozlarni aniq talaffuz etishga hamda xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi. Shuni e'tirof etish o'rinliki, musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida ham muhimdir.



XULOSA

Darsda qanday faoliyat turi qo'llanilmasin, uning amaliyotda foydalanilayotgan asar o'rganiladi va xususiyatlari-janri, tuzilishi ijrochiligi kabilar haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkibtoptiruvchi, umumiy bilim tushunchalar majmuasi (musiqa shakllari, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi va boshqalar)ni singdirib borishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston"- 2017-yil
2. Mirziyoyev.SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Toshkent "O'zbekiston"- 2016-yil
3. Sharipova G.M "Musiqqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent 2008
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Способин И. В. Элементарная теория музыки. М.-Л.: Музгиз, 1951; многие переиздания.
6. Вахромеев В. А. Элементарная теория музыки. М., 1956, многие переиздания.
7. Фридкин Г. А. Практическое руководство по музыкальный грамоте. М., 1957; многие переиздания.
8. Хвостенко В. Задачи и упражнения по элементарной теории музыки. М.: Музыка, 1965.
9. Курс теории музыки / Ред. А. Л. Островский. Л., 1978, 2-е изд. 1984, 3-е изд. 1988.
10. Алексеев Б., Мясоедов А. Элементарная теория музыки. М., 1986.
11. Теория музыки / Ред. Т. С. Бершадская. СПб.: Композитор, 2003. 194 с.
12. Music theory.ru.